UDK: 338.45(575.1)

# O‘ZBEKISTON SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH VA DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Xalilova Nigora Alijonovna**
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Loyiha boshqaruvi yo‘nalishi magistri
Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi Sanoatni rivojlantirish yig‘ma bo‘limi yetakchi mutaxassisi

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalashning nazariy asoslari hamda amaliy holati tahlil qilingan. Sanoat tarmoqlari tarkibidagi o‘zgarishlar, qayta ishlash sanoatining ulushi va eksport tuzilmasi o‘rganilgan. Tahlil natijasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologik yangilanishni rag‘batlantirish va tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** sanoat, modernizatsiya, diversifikatsiya, qayta ishlash sanoati, qo‘shilgan qiymat, tarkibiy o‘zgarishlar, sanoat siyosati.

**Аннотация.** В статье анализируются теоретические основы и практическое состояние модернизации и диверсификации промышленности Узбекистана. Изучены изменения в отраслевой структуре промышленности, доля обрабатывающей промышленности и структура экспорта. Разработаны предложения по расширению производства продукции с высокой добавленной стоимостью, стимулированию технологического обновления и усилению межотраслевой кооперации.

**Ключевые слова:** промышленность, модернизация, диверсификация, обрабатывающая промышленность, добавленная стоимость, структурные изменения, промышленная политика.

**Abstract.** The article analyses the theoretical foundations and current state of industrial modernization and diversification in Uzbekistan. Changes in the sectoral structure of industry, the share of manufacturing and the structure of exports are examined. Proposals are developed to expand the production of high value-added goods, stimulate technological renewal and strengthen inter-industry cooperation.

**Keywords:** industry, modernization, diversification, manufacturing, value added, structural change, industrial policy.

Kirish

Sanoat milliy iqtisodiyotning o‘sish sur'ati, eksport salohiyati va bandlik darajasini belgilovchi asosiy tarmoq hisoblanadi. Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, barqaror o‘sishga erishgan davlatlarda qayta ishlash sanoati yalpi ichki mahsulotning asosiy manbaiga aylangan. Shu sababli sanoatni modernizatsiya qilish va uning tarmoq tarkibini diversifikatsiyalash O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining markaziy vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sanoat ishlab chiqarishini jadal oshirish vazifasi belgilangan [1]. Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston–2030" strategiyasida ham sanoatni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Ushbu hujjatlar mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sanoatlashuv va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni N. Kaldor asoslab bergan: uning fikricha, qayta ishlash sanoati iqtisodiyotning "o‘sish dvigateli" bo‘lib, unda mehnat unumdorligi boshqa tarmoqlarga qaraganda tezroq oshadi [3]. H. Chenery, S. Robinson va M. Syrquin iqtisodiy rivojlanish jarayonida sanoat ulushining ortishi qonuniyatini empirik jihatdan ko‘rsatgan [2].

R. Hausmann, J. Hwang va D. Rodrik mamlakat qanday mahsulot eksport qilishi uning keyingi o‘sish sur'atini belgilashini isbotlagan [4]. D. Rodrik zamonaviy sanoat siyosatini davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik jarayoni sifatida talqin etadi [5]. UNIDO hisobotlarida esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoatni diversifikatsiyalash va global qiymat zanjirlariga qo‘shilish zarurligi ta'kidlangan [6].

Mahalliy tadqiqotlarda sanoatni modernizatsiya qilish masalalari asosan tarmoq darajasida o‘rganilgan. Biroq sanoat tarkibidagi o‘zgarishlarni diversifikatsiya ko‘rsatkichlari bilan kompleks baholash masalasi yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili va abstrakt-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanildi. Sanoat tarkibining diversifikatsiya darajasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi qo‘llanildi:

$$HHI = \sum_{i=1}^{n} s_i^2$$

Bu yerda $s_i$ — i-tarmoqning sanoat mahsuloti umumiy hajmidagi ulushi (foizda), n — tarmoqlar soni. Indeks qiymatining pasayishi sanoat tarkibi diversifikatsiyalashayotganini bildiradi. Axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi [7].

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sanoatida qayta ishlash tarmoqlarining ulushi ortib bormoqda. Bu tendensiya xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish siyosatining natijasidir. Quyidagi jadvalda sanoat tarkibini baholash uchun zarur ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekiston sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari [7]

| Ko‘rsatkich | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|
| Sanoat mahsuloti hajmi, trln so‘m | 451,6 | 551,1 | 655,8 | 885,8 | 1 101,1 |
| Sanoat o‘sish sur'ati, % | 108,7 | 105,2 | 106,0 | 106,8 | 106,8 |
| Qayta ishlash sanoatining ulushi, % | 83,0 | 83,2 | 84,4 | 85,1 | 86,0 |
| Tog‘-kon sanoatining ulushi, % | 9,5 | —* | 8,4 | 7,6 | 7,0 |
| Sanoatning YaIMdagi | 27,8 | 26,7 | 25,3 | 26,1 | 26,8 |



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

| Ko‘rsatkich | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|
| ulushi, % | | | | | |
| HHI indeksi | 7026 | —* | 7239 | 7346 | 7486 |

*Izoh: Milliy statistika qo‘mitasining yillik dastlabki ma’lumotlari asosida tuzildi. HHI sanoatning to‘rt seksiyasi (B – tog‘-kon, C – ishlab chiqaradigan sanoat, D – elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash, E – suv ta’minoti va chiqindilarni utilizatsiya qilish) ulushlari bo‘yicha hisoblangan. * 2022-yil uchun seksiyalar kesimidagi to‘liq ma’lumot keltirilmagan.*

Jadval ma'lumotlari 2021–2025-yillarda sanoat mahsuloti hajmi joriy narxlarda 2,4 barobarga oshganini, uning real o‘sish sur'ati esa har yili 5,2–8,7 foiz oralig‘ida bo‘lganini ko‘rsatadi. Qayta ishlash sanoatining ulushi 83,0 foizdan 86,0 foizga ko‘tarilib, tog‘-kon sanoatining ulushi 9,5 foizdan 7,0 foizga tushgan. Seksiyalar darajasida hisoblangan HHI qiymatining o‘sishi sanoat tarkibida qayta ishlash sanoati mavqeining kuchayishini aks ettiradi; tarmoq ichidagi diversifikatsiya darajasini aniqlash uchun esa indeksni qayta ishlash sanoati tarmoqlari kesimida hisoblash maqsadga muvofiq. Eksport tuzilmasi ham xomashyo yo‘nalishi hali ustun ekanini ko‘rsatadi: 2025-yilda 33,8 mlrd AQSh dollarlik eksportning 29,0 foizini oltin, atigi 11,8 foizini esa sanoat mahsulotlari tashkil etgan [7].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, sanoat o‘sishi asosan metallurgiya, kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari tarmoqlari hisobiga ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali mahsulotlarning ulushi hali past darajada qolmoqda. Asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- asosiy fondlarning yuqori darajada eskirganligi va texnologik yangilanishning sekinligi;
- mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasining yetarli emasligi;
- ichki sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish darajasining pastligi;
- malakali muhandis-texnik kadrlar yetishmasligi;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) sarflanadigan mablag‘larning kamligi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston sanoatida tarkibiy o‘zgarishlar ijobiy yo‘nalishda kechayotganini, biroq ularning sifat jihatidan chuqurlashtirilishi zarurligini ko‘rsatdi. Sanoatni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Xomashyoni chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan loyihalar uchun soliq va kredit imtiyozlarini qo‘shilgan qiymat darajasiga bog‘lash.
2. Sanoat korxonalarida asosiy fondlarni yangilash uchun lizing va tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmlarini kengaytirish.
3. Yirik korxonalar va kichik biznes o‘rtasida sanoat kooperatsiyasi birjalarini rivojlantirish orqali mahalliylashtirish darajasini oshirish.
4. Sanoat tarkibi diversifikatsiyasini HHI kabi ko‘rsatkichlar orqali muntazam monitoring qilib borish.
5. OTMlar va sanoat korxonalari hamkorligida muhandis kadrlar tayyorlashning dual tizimini joriy etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. — lex.uz.
2. Chenery H., Robinson S., Syrquin M. Industrialization and Growth: A Comparative Study. — New York: Oxford University Press, 1986.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Kaldor N. Causes of the Slow Rate of Economic Growth of the United Kingdom. — Cambridge: Cambridge University Press, 1966.
4. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What you export matters // Journal of Economic Growth. — 2007. — Vol. 12, No. 1. — P. 1–25.
5. Rodrik D. Industrial Policy for the Twenty-First Century. — Harvard University, KSG Working Paper, 2004.
6. UNIDO. Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. — Vienna, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. — stat.uz.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.